

**Nordik universitetida mas'ul xodimlarning "Talaba-yoshlarning giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasi va suiiste'moliga aralashib qolish holatlarining oldini olish" g'oyasi mavzusida talabalar bilan uchrashuvi
to'g'risida
MA'LUMOTNOMA**

Xalqaro Nordik universitetida sentyabr-oktyabr oylarida "Talaba-yoshlarning giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasi va suiiste'moliga aralashib qolish holatlarining oldini olish" g'oyasi mavzusida talabalar yoshlari bilan suhbatlar o'tkazildi

Talabalarga giyohvandlikning jismoni va ruhiy salomatlikka salbiy ta'siri haqida ma'lumot berildi. Giyohvandlik yoshlarning hayotini buzib, o'qish va ish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, yurtimiz tinchligi va barqarorligiga zarar yetkazishi ta'kidlandi.

Yig'ilishda giyohvandlikning ijtimoiy masalarga olib kelishi, oilaviy munosabatlar, do'stlik va jamiyatda ishonchni yo'qotish kabi salbiy natijalari haqida ham so'z yuritildi. Yoshlar buni anglashlari va jamiyatda giyohvandlikka qarshi kurashda faol ishtirok etishlari zarurligi ta'kidlandi..

Talabalarga axloqiy ma'rifat va to'g'ri tafakkurga ega bo'lish, yot mafkuralardan ogoh bo'lish muhimligi, shuningdek, salbiy g'oyalarni rad etish haqida maslahatlar berildi. O'zlarini to'g'ri yo'lga yo'naltirish va zarur ma'lumotlarga ega bo'lish orqali o'z hayotlarini yanada sifatli va ma'noli qilishlari haqida fikrlar bildirilmoqda.

Yig'ilishda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga kerakli resurslar va yordam ko'rsatish, o'zaro hamkorlik orqali giyohvandlikka qarshi kurashish haqida gapirildi. Har bir yosh o'z atrofidagi insonlar bilan birgalikda, o'zini va jamiyatni muhofaza qilishda faol bo'lishi kerak..

Talabalar o'zlarining yurt tinchligi va xavfsizligiga daxldorlik hissini rivojlantirishlari zarurligi ta'kidlandi. Tinchlikni saqlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, yoshlarni tomonidan faollik bilan amalga oshirilishi kerak.







Universitetida sentyabr-oktyabr oylarida “Talaba-yoshlarning giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasi va suiieste'moliga aralashib qolish holatlarining oldini olish” mavzusida talabalar bilan suhbatlar o'tkazildi. Har hafta tyutorlik, ya'ni marifat soatlariada bu muhim masala bo'yicha tadbirlar tashkil etildi.



**N.Qodirov ,
Yoshlar ishlari va talabarga xizmat ko‘rsatish departmenti boshlig‘i**